

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASQAROV MASHHURBEK ERGASHBOEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV ISLOHOTINING O‘TKAZILISHI  
VA UNING OQIBATLARI (1925-1929-yillar)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Asqarov Mashhurbek Ergashboevich**

О‘zbekistonda yer-suv islohotining o‘tkazilishi va uning oqibatlari  
(1925-1929 yillar)..... 3

**Аскарлов Машхурбек Эргашбоевич**

Проведение земельно-водной реформы в Узбекистане и ее последствия  
(1925-1929 гг.)..... 25

**Askarov Mashkhurbek Ergashboevich**

Conducting land-water reforms in Uzbekistan and its results  
(1925-1929 yy.) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASQAROV MASHHURBEK ERGASHBOEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV ISLOHOTINING O‘TKAZILISHI  
VA UNING OQIBATLARI (1925-1929-yillar)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2017.1.PhD/Tar.12 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-talim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Alimov Ibrohimjon Abdugapparovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulov Abdulla Nuritdinovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «4» 02 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti, Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu\_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). Tel.: (99873)244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «21» 01 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «21» 01 dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi bilan).



**B.A.Usmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, t.f.d., dotsent

**N.O.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

**R.A.Arslonzoda**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, t.f.n., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi kunda yer-suv resurslarini tejash, ulardan oqilona va samarali tarzda foydalanish, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan turli mamlakatlarda yer va suv resurslaridan unumli foydalanishda o‘zaro munosabatlarini oqilona tashkil etish barcha davrlarda asosiy o‘rin tutib kelgan.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar yetakchi ilmiy markazlari va nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida yer-suv munosabatlari tarixini tadqiq etish borasida izchil ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Qadimgi davrlarda va ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda yerga egalik qilish munosabatlarining taraqqiy etishi, sun‘iy kanallar va ariqlar qazilishi va ulardan dehqonchilikda foydalanilishi masalalari ilmiy asosda o‘rganilmoqda. Shu bilan bog‘liq holda O‘zbekistonda sovet hokimiyati-yillarida amalga oshirilgan agrar o‘zgartirishlar va yer-suv islohotlari tarixi qizg‘in ilmiy bahslarga sabab bo‘layotgan mavzular sirasiga kiradi.

Mustaqillik-yillarida O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixini, turli davrlarda amalga oshirilgan agrar islohotlarning ijobiy va ziddiyatli jihatlarini xolisona tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26 apreldagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida respublikada ekin yerlaridan samarali foydalanish, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloqda fuqarolarning bandligi va farovonligini oshirish»<sup>1</sup> zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Unga ko‘ra, jamiyat hayotida yer-suv munosabatlari, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish masalalari bevosita yaqin tariximizda kechgan agrar munosabatlar xususiyatini o‘rganish, yerdan foydalanish borasidagi tarixiy tajribalarni ilmiy jihatdan umumlashtirishni ham taqozo etadi. Bu o‘z navbatida qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF- 4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 30 iyundagi PQ-3105-son «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» va 2018-yil 26 apreldagi PQ-3680-son «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 апрелдаги 3680-сон «Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 2018 йил 26 апрель.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilish darajasi.** 1925-1929-yillarda Oʻzbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti tarixiga doir qator ilmiy adabiyotlar mavjud boʻlib, ularni uch guruhga boʻlish mumkin. Jumladan, birinchi guruhga sovet tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar, ikkinchi guruhga mustaqillik-yillarida Oʻzbekistonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardir. Uchinchi guruhga esa xorijda nashr etilgan adabiyotlar kiradi.

Nashrlarning katta qismini birinchi guruhga mansub adabiyotlar tashkil etadi. Sovet hokimiyati-yillarida Oʻzbekistonda yer-suv islohoti tarixiga bagʻishlangan koʻplab ilmiy ishlar qilingan. Lekin bu asarlarning barchasi sovet davri andozalari asosida, sinfiylik nazariyasi va hukmron mafkura ruhida talqin qilingan. Shuning uchun ularda masala toʻliq va xolisona tarzda yoritilmagan, manbalar tanqidiy jihatdan idrok etilmagan. Bu ishlarda koʻplab haqqoniy dalillar chetlab oʻtilgan, islohotlarning salbiy jihatlari ochib berilmagan. Sovet tarixchilari asarlarida tarixiy voqelik toʻla va xolisona aks ettirilmagan, muammoni ilmiy idrok etish oʻta siyosiyashtirilgan.

Oʻzbekistonda 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti masalalariga oid dastlabki ishlar 1925-yildanoq matbuotda eʼlon qilina boshlagan. Shunday ishlardan biri taniqli davlat arbobi Ye.Zelkinaning 1925-yilda nashr qilingan risolasi edi<sup>2</sup>. Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi muammolari bayon etilgan ushbu risolada yer-suv islohotining xususiyatlari va iqtisodiy istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Yer-suv islohoti yakunlangandan keyin Ye.Zelkinaning Oʻrta Osiyodagi agrar masalalarga bagʻishlangan alohida kitobi nashr qilindi<sup>3</sup>. Bu kitobning boblaridan biri Samarqand, Toshkent, Fargʻona va Zarafshon viloyatlarida oʻtkazilgan yer-suv islohoti natijalariga bagʻishlangan.

Oʻzbekiston KP(b) Markaziy Komitetning oʻsha vaqtdagi birinchi kotibi A.Ikromovning yer-suv islohoti natijalariga bagʻishlangan risolasi<sup>4</sup> ham bu masalani yoritish borasidagi dastlabki ishlardan biri sanaladi. Unda A.Ikromovning OʻzKP (b) II seʼzdida (1925-yil, noyabr) qilgan maʼruzasi oʻrin olgan boʻlib, unda islohotdan koʻzlangan maqsad va dastlabki iqtisodiy rejalar bayon qilingan. Risolaning muhim jihati shundaki, unda islohotni oʻtkazish bilan bogʻliq koʻpgina statistik maʼlumotlar va raqamlar keltirilgan.

Yer-suv islohoti tarixi mavzusini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish 1947-yilda Gʻ.Gʻ.Rizaevning bu masalaga bagʻishlangan kitobi<sup>5</sup> eʼlon qilingandan keyin boshlandi. XX asrning 50-yillaridan eʼtiboran Oʻzbekistondagi yer-suv

<sup>2</sup> Зелькина Е. Земельная реформа в Узбекистане. – Ташкент, 1925. – 34 с.

<sup>3</sup> Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – Москва, 1930. – 72 с.

<sup>4</sup> Икрамов А. Итоги земельной реформы и перспективы её закрепления. – Самарканд – Ташкент, 1926. – 53 с.

<sup>5</sup> Ризаев Г. Краткий очерк земельно-водной реформы в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат, 1947. – 64 с.

islohoti masalasi tarixshunoslikning muhim tadqiqot ob'ekti sifatida izchil o'rganila boshlandi. 1950-1960-yillarda yaratilgan ko'pgina ilmiy asarlarda<sup>6</sup> O'zbekistondagi yer-suv islohoti bilan bog'liq masalalar ham ko'rib o'tilgan. XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmida yer-suv islohoti masalalari turli ilmiy konferensiya va sessiya materiallarida ham yoritib berildi<sup>7</sup>. R.Yu.Bobojonovanning 1957-yilda nashr qilingan tadqiqot ishida<sup>8</sup> yer-suv islohotining dastlabki bosqichida qishloqlarda olib borilgan ommaviy-partiyaviy ishlar va ularning mazmuni tahlil etilgan.

O'zbekistonda yer-suv islohotining o'tkazilishi va uning natijalari L.Z.Kunakovaning asarlarida sovet davri andozalari asosida batafsil tadqiq etilgan<sup>9</sup>. Tadqiqotchining ilmiy izlanishida Farg'ona vodiysida amalga oshirilgan yer-suv islohoti va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijobiy natijalari tahlil etilgan. Muallifning keyingi monografiyasida esa butun O'zbekistonda 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti masalalari umumiy holatda o'rganilgan. Bu ikkala asarda mavzuga aloqador ko'pgina hukumat qarorlari, arxiv hujjatlari tahlil etilib, ilmiy muomalaga olib kirilgan. Lekin ularda islohot masalalari har taraflama tahlil etilmagan, ularda islohot keltirib chiqargan bir qator salbiy oqibatlar o'z aksini topmagan.

O'zbekistondagi yer-suv islohoti masalalari faqat tarixchilar tomonidagina emas, balki iqtisodchi mutaxassislar tomonidan ham o'rganilgan. Bu kabi tadqiqotlardan biri O.B.Jamolovning monografiyasi<sup>10</sup> bo'lib, unda qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish arafasidagi respublika qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy holat, yer egaligi munosabatlarida yuz bergan o'zgarishlar masalasi tadqiq etilgan. Monografiyaning ikkita bobida 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti davrida o'zbek qishlog'ida ro'y bergan iqtisodiy o'zgarishlar tahlil qilingan va bu masala bo'yicha ko'pgina umumlashtirilgan faktik ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

1960-1970-yillarda respublikada manbaviy xarakterdagi fundamental to'plamlar va alohida nashrlar e'lon qilindi<sup>11</sup>. Bu nashrlarda 1920–1930-yillarda

---

<sup>6</sup> История гражданского войны в Узбекистане. Т. 1. Отв. ред. Х.Ш.Иноятов. – Ташкент: Наука, 1964.–438 с.; Житов К.Е. Победа Великой Октябрьской социалистической революции в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – 146 с.; Зевельев А.И. Из истории гражданской войны в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. – 607 с.; Иноятов Х.Ш. Октябрьская революция в Узбекистане. – Москва: Госполитиздат, 1958. – 319 с.

<sup>7</sup> Материалы объединенной научной сессии, посвященной истории Средней Азии и Казахстана (эпоха социализма). – Алма-ата: Изд-во Акад. наук КазССР, 1958.–507 с.

<sup>8</sup> Бабаджанова Р.Ю. Партийно-массовая работа коммунистической партии Узбекистана в кишлаке в период земельноводной реформы. (1925-1926 гг.) – Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1959.–106 с.

<sup>9</sup> Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Ферганской долине (1925-1926 гг.). – Ош: Гос. пед. ин-т, 1962.–191 с.; Унинг ўзи. Земельно-водная реформа в Узбекистане (1925-1929 гг.). – Фрунзе: Мектеп, 1967. – 300 с.

<sup>10</sup> Джамалов О.Б. Социально-экономические предпосылки сплошной коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане. – Ташкент, 1950.

<sup>11</sup> Подготовка условий сплошной коллективизации сельского хозяйства Узбекистана (1927-1929 гг.) – Ташкент: Изд. Ан Уз ССР, 1961; Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917-1926 гг.) – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1962; История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. – Ташкент, 1962; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1964; Коммунистическая партия Узбекистана в цифрах (Сборник статических материалов). 1924-1964. – Ташкент: Узбекистан, 1964; Ризаев Г.Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг.) – Ташкент: Узбекистан, 1967; Торжество ленинского кооперативного плана в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1970; Тулепбаев Б.А. Торжество ленинских идей социалистического преобразования сельского

O‘zbekiston SSRdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar qatorida yer-suv islohoti masalasi ham tadqiq etilgan, lekin ularda islohot jarayonlari va natijalari hukmron mafkura g‘oyalari asosida talqin qilingan. Bu davrda o‘zbek tarixchilari orasidan bir qator tadqiqotchilar yetishib chiqdi. Hamda, ular tomonidan O‘zbekistonda agrar soxada yuz bergan o‘zgarishlarni yorituvchi alohida tadqiqot ishlari yaratildi. Bu asarlar ichida R.X.Aminovning asarlari<sup>12</sup> muhim ahamiyatga ega. Chunki olim o‘z asarlarida, asosan, O‘zbekistondagi agrar o‘zgarishlar tarixini alohida mavzu sifatida chuqur tahlil qilgan. Ularda 1926-1929-yillardagi yer-suv islohoti jarayonida ko‘plab kambag‘al dehqonlar yer olgani qayd etilsa-da, boy xo‘jaliklardan tortib olingan yer zahirasi asosiy qismi muhtoj dehqonlarga taqsimlanmay, ular asosida kolxoz va sovxozlar tashkil etilgani ko‘rsatilmagan. Ya‘ni, islohot natijasida respublikadagi asosiy ekin maydonlari ustidan to‘la davlat nazorati o‘rnatilgani va uning salbiy oqibatlari yoritib berilmagan.

I.A.Alimovning tadqiqotlarida ham O‘zbekistondagi agrar sohadagi o‘zgarishlar, yer-suv islohotining ba‘zi bir jihatlari yoritilgan<sup>13</sup>. Biroq ushbu asarlarda ham o‘rganilgan muammoga o‘sha davr mafkurasi va talablari bo‘yicha baho berilgan. Jumladan, yer-suv islohoti oqibatida tugatilgan tadbirkor dehqon xo‘jaliklari va ularning islohotga nisbatan qarshilik va norozilik harakatlari deyarli ochib berilmagan.

1970-1980-yillarda yaratilgan sovet davlatida agrar sohada amalga oshirilgan «sotsialistik» o‘zgarishlar tarixiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlarda<sup>14</sup> O‘zbekistondagi 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti masalalari ham umumlashtirilgan.

Umuman, mavzuga doir sovet davri ilmiy adabiyotlari tahlili ko‘rsatadiki, ushbu ilmiy adabiyotlarda muammo faqat bir tomonlama, ya‘ni, yer-suv islohoti faqat ijobiy jarayon sifatida, O‘zbekistonda «sotsializm qurish» yo‘lidagi muhim qadam deya talqin etilgan. Ularda islohot jarayonidagi zo‘ravonlik va qonunbuzarliklar, islohot keltirib chiqargan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar aks etmagan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti tarixi haqida bor haqiqatni ochiq-oshkora aytish imkoniyati paydo bo‘ldi. Respublikaning mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi, hukmron mafkura ta‘siridan butunlay xalos bo‘lib milliy-ma‘naviy qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirish uchun sog‘lom vaziyatni yuzaga keltirdi. Bu davrda yer-suv islohoti mavzusiga doir izlanishlar va adabiyotlarning ikkinchi guruhiga

---

хозяйства в Средней Азии и Казахстане. – Москва, 1971; Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Бош мухаррир И.М.Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971; Алламурадов Д. Исторический опыт Советов Узбекистана в борьбе за победу социализма. – Ташкент: Узбекистан, 1974; Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925-1937 гг.) Том 1. – Ташкент, 1987., ва бошқалар.

<sup>12</sup> Аминова Р.Х. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане 1917-1920 гг. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1963.–344 с.; Унинг ўзи. Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода Советского государства к НЭПу. – Ташкент: Наука, 1965.–347 с.; Унинг ўзи. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне коллективизации 1927-1929 гг. – Ташкент: Фан, 1969.–469 с.

<sup>13</sup> Алимов И.А. Земельно-водная реформа в Ташкентской области (1925-1926 гг.) /Диссертация на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1966; Унинг ўзи. Узбекское дехканство на пути к социализму (Социально-экономические преобразования в узбекском кишлаке в 1921-1925 гг.) – Ташкент: Узбекистан, 1974.

<sup>14</sup> Советское крестьянство. Краткий очерк истории (1917-1970). – Москва: Политиздат, 1973; История крестьянства СССР. История Советского крестьянства. Том 1-2. – Москва: Наука, 1986.

kiruvchi uslub va sifat jihatdan avvalgilardan tamoman farq qiluvchi tadqiqotlar yaratildi<sup>15</sup>. Bu asarlarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotining butun jihatlari xolisona, har taraflama yoritib berildi, uning salbiy oqibatlari haqida ham ilk bor fikr-mulohazalar ilgari surildi.

Yer-suv islohoti tarixiga tanqidiy baho berilgan, islohotning ziddiyatli tomonlari ham xolisona ko‘rsatib o‘tilgan tadqiqotlardan biri A.A.Golovanovning O‘zbekiston dehqonchiligi tarixiga oid monografiyasidir<sup>16</sup>. Unda 1917-1937-yillarda o‘zbek qishlog‘idagi ijtimoiy holat va unda yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilingan. Kitobda O‘zbekistonda 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti va uning natijalari masalasiga ham keng o‘rin berilgan. Jumladan, islohotning asl mohiyati, sovet davlatining undan ko‘zlagan maqsadlari, natijalari xususida ilmiy-nazariy fikrlar ilgari surilgan. Islohot natijasida o‘zbek qishloqlarida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar haqida ko‘plab daliliy ma‘lumotlar keltirilgan.

R.T.Shamsutdinov, Sh.Karimovlar tomonidan tayyorlangan oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmada yer-suv islohoti masalasiga tamoman yangicha metodologiya bo‘yicha yondashilgan, ularda islohotning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlari ham dalillar asosida ko‘rsatib berilgan<sup>17</sup>.

«O‘zbekistonning yangi tarixi»ning ikkinchi kitobida<sup>18</sup> va katta hajmli fundamental tadqiqot ishlarida<sup>19</sup> O‘zbekistondagi yer-suv islohoti mavzusi yangicha qarashlar asosida tahlil doirasiga olingan, mualliflar bu masala bo‘yicha xolisona xulosalarga kelgan. Hamda, 1925-1929-yillardagi islohot davomida to‘q xo‘jaliklardan musodara qilingan yerlar va mol-mulklar davlat qo‘lida jamlangani, yer zahirasi o‘zining qismigina unga muhtoj dehqonlarga taqsimlanib, qolgan barcha yerlar kolxoz-sovхозlar ixtiyoriga berilganligini dalillar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu asarlarda islohot jarayonida ko‘plab o‘ziga to‘q xo‘jaliklar asossiz ravishda qatag‘on qilib yuborilgani va uning qishloq xo‘jaligi rivojiga salbiy ta‘siri haqida fikrlarni ilgari surilgan.

R.T.Shamsutdinovning qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, quloq qilish va uning oqibatlariga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlarida<sup>20</sup> O‘zbekistondagi yer-suv islohoti, uning mohiyati, yakunlariga doir qator nazariy fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, yer-suv islohoti jarayonida sovet hukumati tomonidan «quloq» xo‘jaliklariga qarshi olib borilgan iqtisodiy cheklov siyosati tahlil etilib, bu masala bo‘yicha ko‘pgina arxiv ma‘lumotlari ilmiy muomalaga olib kirilgan.

---

<sup>15</sup> Аминова Р.Х. Коллективизация: как это было? // «Коммунист Узбекистана», 1991. №9; Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2010., ва бошқалар.

<sup>16</sup> Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992.

<sup>17</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 246-310.

<sup>18</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

<sup>19</sup> Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2001; Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX – первой трети XX вв. – Самарканд, 2007. – 384 с.

<sup>20</sup> Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Тошкент: Шарқ, 2001; Унинг ўзи. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент: Шарқ, 2005.

Bir guruh tarixchi olimlar tomonidan tayyorlanib, 2019-yilda nashr etilgan ikki kitobdan iborat O'zbekiston tarixining birinchi kitobida<sup>21</sup> 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti jarayonlariga oid yangi ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritilgan. Shu o'rinda sovet hukumatining agrar siyosati yakunlari bo'yicha nazariy-uslubiy qarashlar ilgari surilgan.

1925-1927-yillarda Farg'ona oblastida o'tkazilgan yer-suv islohotida sovetlar faoliyati masalasi tadqiqotchi R.R.Shamsitdinov tadqiqotida<sup>22</sup> alohida izlanish ob'ekti sifatida o'rganilgan. Dissertatsiyada Farg'ona oblastida amalga oshirilgan islohotning o'ziga xos tomonlari ko'rsatilgan. Jumladan, Farg'ona oblasti uezd va rayonlaridagi sovetlarning islohotni o'tkazishdagi faoliyati birlamchi manbalar asosida yoritilib, unga doir ko'pgina arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Sovet hokimiyatining milliy respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda amalga oshirgan agrar islohotlari xorij tadqiqotchilaridan A.Park, V.Montey, Sh.Buve, J.Shombar, O.Karoe, G.Uiler, M.Rivkin, E.Bekon tomonidan atroflicha tahlil etilgan<sup>23</sup>. Bu asarlarda O'rta Osiyoda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, hukumat tomonidan bu mintaqada amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar umumiy tarzda tadqiq etilgan. Shuningdek, milliy respublikalardagi agrar islohotlar masalasi ham tahlil doirasiga tortilgan. AQShlik sovetshunos M.Rivkin sovet davlatining O'rta Osiyo respublikalaridagi milliy siyosatiga bag'ishlangan asarida O'zbekistonda o'tkazilgan agrar islohotlar xususida ham to'xtalib, yer-suv islohoti juda kam amaliy natija keltirganini qayd etgan. Hamda, sovet hukumati islohot bahonasida ko'pgina yer egalari mol-mulkini tortib olib, ularni xonavayron qilganini yozgan<sup>24</sup>. Muallif xususiy yer egaligining tugatilishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi unumdorligi pasayishiga olib kelgani haqida xulosaga kelgan. Tarixchi G.Uiler esa o'z tadqiqotida yer-suv islohoti oqibatida dehqonlar tarixiy qadriyatlaridan butunlay mahrum bo'lgani va tarixda hali sinovdan o'tmagan yangi agrar tizimga majburan kiritilganini bayon qilgan<sup>25</sup>. Tadqiqotchi E.Bekon o'z asarida «1925-1929-yillarda yerlarning musodara qilinishi va ularning kambag'al dehqonlar o'rtasida taqsimlanishi natijasida vujudga kelgan holat podsho Rossiyasi davrida amalga oshirilgan yerni qayta taqsimlashga o'xshab ketdi»<sup>26</sup> degan xulosaga kelgan.

Xorij tadqiqotchilari asarlarida aniq faktik dalillar va raqamlar nisbatan kam keltirilgan bo'lsa-da, ularning xulosalarida sovet davlatining O'rta Osiyodagi siyosati mustamlakachilikka asoslangani yaqqol aks etgan.

<sup>21</sup> Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) К.1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. /Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. –Тошкент: Ozbekiston, 2019. – 481 б.

<sup>22</sup> Шамситдинов Р.Р. Советы в проведении земельно-водной реформы в Ферганской области. 1925-1927 гг. /Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва, 1993. – 257 с.

<sup>23</sup> Park A. Bolshevism in Turkestan 1917-1927. – New York: 1957. – 134 p.; Monteil V. Les musulmans sovietiques. – Paris: 1957. – 244 p.; Charles Bouvier. La collectivization de l agriculture. – Paris: 1958.; Jean Chombart de Lauwe. Les paysans sovietiques. – Paris: 1961.; Caroe O. Soviet Empire. The Turks of Central Asia and Stalinism. – London – New York: 1954. – 128 p.; Geoffrey Wheeler. The people of Soviet Central Asia. – New York: 1960.; Rywkin M. Russia in Central Asia. – New York – London: 1963.; Elisabeth E. Bacon. Central Asians under Russian rule. A study in cultural change. – New York: 1966. – 340 p.

<sup>24</sup> Rywkin M. Russia in Central Asia. – New York – London: 1963. – P. 65.

<sup>25</sup> Geoffrey Wheeler. The people of Soviet Central Asia. – New York: 1960. – P. 132.

<sup>26</sup> Elisabeth E. Bacon. Central Asians under Russian rule. A study in cultural change. – New York: 1966. – P. 154.

Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlarning tarixshunoslik tahlili ko'rsatmoqdaki, 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti va uning oqibatlari masalasi haligacha zamonaviy metodologiya asosida to'liq o'rganilmagan hamda alohida tadqiqot mavzusi sifatida izlanish ob'ekti bo'lmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat universitetining IT-8-44-06. – «O'zbekistonning Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davri tarixi», IT-8-45-06. – «O'zbekiston tarixini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari, Tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasining ITM-34.4-08. – «Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi-yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1867-1990-yillar)» mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda 1925-1929-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohotining bosqichlari va uning xususiyatlarini, islohotning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tanqidiy o'rganish va tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sovet davlatining O'zbekistonda amalga oshirgan agrar siyosati xususiyati, maqsadlari va uning mustamlakachilik mohiyatini ochib berish;

O'zbekistonda yer-suv islohotiga tayyorgarlik ishlari va unga qishloq aholisining munosabatini ko'rsatib berish;

1925-1929-yillardagi yer-suv islohotining respublikadagi 3 ta bosqichini ilmiy tahlil qilish asosida har birining o'ziga xos jihatlari aniqlash;

islohotlar jarayonida o'ziga to'q xo'jaliklarning tugatilishi va mulklarining musodara qilinish jarayonlarini yoritish;

to'q xo'jaliklarning yer-suv islohotiga qarshi ko'rsatgan norozilik harakatlarini yoritish, norozilik harakatlari ko'rinishlarini sharhlash;

yer-suv islohotining yakunlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko'rsatib berish;

sovet hukumatining yer-suv islohoti o'zbek dehqonlari milliy xususiyati va tarixiy an'analari mos kelganini aniq misollar bilan ochib berish;

o'rganilgan masalalarni nazariy jihatdan umumlashtirgan holda bugungi kunda respublikamizda dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlarga amaliy tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida sovet hukumati tomonidan 1925-1929-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti belgilandi.

**Tadqiqotning predmetini** Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Zarafshon oblastlari, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm okruglarining dehqon xo'jaliklari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tadqiqotlar olib borishning ob'ektivlik, tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy, muammoviy-xronologik, tanqidiy-qiyosiy, tarixiy-retrospektiv (solishtirish) kabi ilmiy tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

islohot arafasida «18 lar guruhi» deb atalgan milliy davlat arboblarning islohotni o'tkazishda imkon qadar yerdan baravar foydalanish amaliyotidan qochish, tovar-pul munosabatlari rivojiga keng yo'l ochib berish, badavlat dehqonlarga ehtiyotkor munosabatda bo'lish kabi sovet hukumati siyosatiga nisbatan muholif qarashlari ochib berilgan;

sovet hokimiyatining O'zbekistondagi yer-suv islohoti jarayonida qishloqni ijtimoiy qayta qurishning yer egalaridan yer, ish hayvoni va asbob uskunalarni pulga sotib olib rozi qilish kabi tarixiy jihatdan sinalgan iqtisodiy shakli va ixtiyoriylik, xususiy mulk dahlsizligi singari tamoyillarini inkor etgani holda, mulkdorlarga tazyiq o'tkazish, majburlash, tahdid qilish, musodara, tortib olish, qamoqqa olish kabi zo'ravonlik usullarini tatbiq etgani aniq misollar bilan ko'rsatib berilgan;

Farg'ona, Toshkent va Samarqand oblastlaridagi islohot jarayonida sovet hukumatining vaqf mulklari borasidagi keskin choralari qishloq aholisining qattiq noroziligiga sabab bo'lgani, bundan tegishli xulosa chiqarilgan holda, Zarafshon oblastidagi islohot davomida vaqf mulklariga nisbatan ancha ehtiyotkor siyosat hududdagi yer-suv islohotining o'ziga xos xususiyatlardan biri sifatida dalillangan;

yer-suv islohoti jarayonida katta yer egalari bilan bir qatorda o'rtahol, hatto kambag'al dehqon xo'jaliklarining ham asossiz ravishda tugatib yuborilgani, qishloqning turli qatlamlari o'rtasida «sinfiy kurash» niqobi ostida o'zaro dushmanlik, adovat kayfiyatining yuzaga keltirilgani aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda sovet hukumatining agrar siyosati mohiyatini tahlil etish etish asosida 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotining maqsad va sabablarini, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tadqiq etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy hamda amaliy jihatlar aniqlangan;

yer-suv islohoti O'zbekistondagi ekin maydonlarini to'la davlat tasarrufiga olishga, dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solishga yo'naltirilgani, musodara qilingan yerlarda kolxoz va sovxozlar tashkil etilib, ular paxtachilikni rivojlantirishga ixtisoslashgani dalillar bilan ko'rsatib berilgan;

O'zbekistondagi agrar munosabatlar, dehqonchilik tarixini chuqur tadqiq etishda, O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda ushbu dissertatsiya materiallarining foydali jihatlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada tarix fanida e'tirof etilgan yondashuvlar va zamonaviy usullarning qo'llanganligi, arxiv manbalaridan va ko'pgina ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, muammo bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, erishilgan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida ob'ektivlik, tarixiylik, xolislik, ilmiylik tamoyillari va tanqidiy-qiyosiy yondashuv, tarixiy-retrospektiv (solishtirish) usullariga asoslangan bo'lib, agrar munosabatlar

muammolariga oid metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa dissertatsiyada jamlangan ma'lumotlar O'zbekiston qishloq xo'jalik tarixini, o'zbek qishlog'ida sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan agrar o'zgartirishlar tarixini xolisona o'rganish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 1925-1929-yillar davriy chegarasida O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohoti va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va ilgari surilgan takliflar asosida:

O'zbekistonda 1925-1929-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti va uning yakunlari bo'yicha tadqiqot natijalaridan, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti va Andijon davlat universitetida «O'zbekiston tarixi», «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishi» fanlarini o'qitishda qo'llanilgan hamda mazkur fanlarni statistik materiallar, manbalar va ma'lumotlar bilan to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 26-maydagi №89-03-2058-son ma'lumotnomasi). Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining tatbiq etilishi respublika hududida irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi yirik qurilish ob'ektlari, siyosiy-ijtimoiy sharoitlari, tabiiy resurslarini boshqarishga bo'lgan yondashuvlarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilish, xalqimizning sug'orish va melioratsiya sohasida asrlar davomida yuqori tajribaga va yetuk malakaga ega bo'lganini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

Tadqiqotning statistik materiallari, arxiv hujjatlari va shu ilmiy yo'nalishda tayyorlangan xulosalari Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havzasi boshqarmasi texnik arxivi fondini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2021-yil 18-noyabrdagi №03-27-3364-son ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar arxiv fondlarini boyitish va takomillashtirishga xizmat qilgan.

#### **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.**

Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 135 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va o'rganish zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga

mosligi ko'rsatib berilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Islohotga tayyorgarlik ishlari va unga mulkdor dehqonlarning munosabati**» deb nomlangan birinchi bobida dehqon xo'jaliklarining ro'yxatga olinishi va yer egalarining unga qarshiligi, «O'zbekistonda yer-suv islohoti to'g'risida»gi dekretning qabul qilinishi va bu bo'yicha tegishli tadbirlarning ishlab chiqilishi masalalari tahlil qilingan.

1924-yil oxiri va 1925-yil boshlarida O'zbekistonda islohotga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan yer tuzish, dehqon xo'jaliklarini ro'yxatga olish, mavjud yer resurslarini hisob-kitob ishlari boshlab yuborildi. Bu ishlar birinchi navbatda Toshkent, Farg'ona va Samarqand oblastlarida boshlandi. O'zbekistondagi yer-suv islohotiga tayyorgarlik ishlari RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining bevosita rahbarligida olib borildi. 1925-yil 14-martda O'rta Osiyodagi yer-suv islohoti masalasi RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi plenumida muhokama qilindi va islohotni o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qilindi<sup>27</sup>. Plenum qarorida rayonlarning shart-sharoiti bo'yicha xo'jaliklarning yerdan foydalanish normalarini ishlab chiqish, tegishli xo'jaliklardan «normadan ortiqcha» deb topilgan yerlarni tortib olish belgilangandi. Hamda, qishloqda yashasada, ekin yerlariga o'z mehnati bilan ishlov bermayotgan xo'jaliklardan yerlarni tortib olish zarurligi ko'rsatib o'tildi<sup>28</sup>. Islohot arafasida sovet hokimiyati tuzilmalari dehqonlarning kambag'al qatlamlarini qishloqning badavlat qismiga qarshi qo'yish yo'li bilan o'zaro dushmanlik va nafratni avj oldirishga intildilar, qishloqdagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqardilar. Bu vaziyat partiya hujjatlarida «sinfy kurash», «qishloqda sinfiy tabaqalanishning avj olishi» deb ataldi.

O'zbekiston KP(b) MK plenumi va respublika hukumati ko'rsatmalari bo'yicha 1925-yilning 25 mayida Farg'ona viloyat partiya komiteti qoshida oblast yer-suv islohoti komissiyasi tashkil etildi. Shu-yilning iyun oyi boshlarida bunday komissiya Samarqand viloyat partiya komitetida, 1925-yilning 1 avgustida esa Toshkent oblast partiya komiteti qoshida ham tashkil etildi<sup>29</sup>. Ushbu komissiyalar zimmasiga islohotga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish ishlariga umumiy rahbarlik qilish yuklatildi.

Toshkent, Farg'ona va Samarqand oblastlari bo'yicha yer tuzish va hisobga olish yakunlariga ko'ra, Farg'ona oblasti bo'yicha 272 889 yerli, 7 897 yersiz, jami 280 786 xo'jalik, Toshkent oblasti bo'yicha 68 408 yerli, 8 798 yersiz, jami 77 206 xo'jalik, Samarqand oblasti bo'yicha 115 327 yerli, 2 462 yersiz, jami 11 7789 xo'jalik ro'yxatga olindi<sup>30</sup>. Bunga ko'ra, uchala oblast bo'yicha 191 57 xo'jalikka to'la yer berish, shuningdek, 274 787 xo'jalikka qo'shimcha yer taqsimlash zarur bo'lgan. Yersizlarga taqsimlanadigan yer fondi sovetlar

<sup>27</sup> Зеленский И.А. О земельной реформе в Средней Азии // Земельно-водная реформа в Средней Азии. Сборник материалов. – Москва–Ленинград, 1927. – С. 26.

<sup>28</sup> Ўзбекистон Миллий архиви (keyingi o'rinlarda – Ўз МА), P-86-fond, 2-ro'yxat, 3-ish, 55-56-varaqlar.

<sup>29</sup> O'z MA, P-86-fond, 2-ro'yxat, 4-ish, 21–22-varaqlar.

<sup>30</sup> O'z MA, P-90-fond, 1-ro'yxat, 324-ish, 86-varaq.

tomonidan «pomeshchik tipidagi katta yer egalari», «boy va quloq xo‘jaliklari» deb atalgan xo‘jaliklardan tortib olinadigan, vaqf yerlarini musodara qilish va «normadan ortiqcha» yerlarni qirqib olish hisobiga tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Umuman, O‘zbekistonda o‘tkaziladigan islohotning asosiy zarbasi hukmron tuzum mafkurasi bo‘yicha «eksploatator sinf» deb atalgan tadbirkor va ishbilarmon qatlamga qarshi qaratilgan edi. Ayni paytda, o‘rtahol dehqonlarga birmuncha e‘tibor berildi. Chunki ular qishloqdagi asosiy kuch bo‘lib, islohotning borishi ularning qaysi qatlamlarga qo‘shilishiga bog‘liq edi.

O‘zkompartiya II s‘ezdi ochilishi arafasida Markaziy komitet plenumi nomiga respublikaning 18 nafar mas‘ul partiya va sovet xodimlaridan ariza tushadi. Ular yerdan baravar foydalanish amaliyotidan ehtiyot bo‘lishni, tovar-pul munosabatlari imkoniyatidan to‘laroq foydalanishni, badavlat dehqonlarga avaylab munosabatda bo‘lishni, barcha joylarda agrar islohotning borishida o‘lkaning o‘ziga xos tomonlari hisobga olinishini taklif qilgan edilar<sup>31</sup>. Biroq, «guruh» a‘zolari «boy-quloq» yer egaligini saqlab qolishga intilishda va mahalliy millatchilik tomoniga og‘ishda ayblandi. O‘zkompartiya II s‘ezdida «18 lar guruhi»ning «leninizmga qarshi, aksilpartiyaviy yo‘l tutgani, ularning tutgan yo‘li dehqonlar mamlakati bo‘lgan O‘zbekistondagi partiya birligiga va proletariat diktaturasiga xavf solishi»<sup>32</sup> qayd etildi. Vaholanki, «18 lar guruhi»ga mansub milliy arboblarning sovet hokimiyatining islohotni o‘tkazidagi zo‘ravonlik usullariga qarshi o‘laroq, tarixiy sinovdan o‘tgan muqobil g‘oyalarni ilgari surgan edilar.

1925-yil 2 dekabrda O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komitetining favqulodda sessiyasida «Er-suv islohoti to‘g‘risida»gi dekret<sup>33</sup> qabul qilindi. Dekret asosan «pomeshchik ko‘rinishidagi» xo‘jaliklarni tugatish, boy-quloq xo‘jaliklar va boshqa mehnatsiz daromad topayotgan kishilarga tegishli yerlarni musodara qilish evaziga yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta‘minlashni maqsad qilib qo‘ygan edi. Dekret dastlabki paytda go‘yo ijobiy xarakterga ega bo‘lib ko‘rinsada, uning tub mazmuni va mohiyati boshqa maqsadga yo‘naltirilgan edi. Keyingi voqealar rivoji bu maqsadlarni yaqqol namoyon etdi. Albatta, O‘zbekistonda ma‘lum ma‘noda yirik yer egaligi bo‘lgan, biroq, bolsheviklar tasavvuridagi Rossiyadagi kabi «pomeshchik xo‘jaligi» respublikada yo‘q edi. Mavjud yirik yer egalari ham 1918-yildayoq tugatib yuborilgandi.

1925-yil 15 dekabrda O‘zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti «Er-suv islohotini o‘tkazish jarayonida qishloq xo‘jalik jihozlarini majburiy sotib olish va yer taqsimlanadigan xo‘jaliklarni jihozlar bilan ta‘minlash to‘g‘risida» qaror<sup>34</sup> qabul qildi. Qarorga ko‘ra, musodara qilinadigan ish hayvonlari va asbob-uskunalaridan tashqari, yerlari musodara qilinadigan boshqa xo‘jaliklardan ish hayvonlari va qishloq xo‘jalik asbob-uskunalar qat‘iy belgilangan narxlarda davlat tomonidan majburan sotib olinishi belgilandi. Shuningdek, majburiy sotib olishga

<sup>31</sup> Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1965. – С. 166.

<sup>32</sup> Andijon VDA, 708-fond. Shaxsiy fond Professor Alimov Ibragim Gapparovich. 1-ro‘yxat, 17-ish, 1-3-varaqlar.

<sup>33</sup> O‘z MA, P-86-fond, 1-ro‘yxat, 2396-ish, 15–18-varaqlar.

<sup>34</sup> O‘z MA, P-86-fond, 1-ro‘yxat, 2218-ish, 419–421-varaqlar; Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917-1926 гг.) Сборник документов. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962. – С. 246-247.

normadan ortiqcha yerlari qirqib olinadigan xo‘jaliklarga tegishli bo‘lgan «ehtiyodan ortiqcha» ishchi hayvonlari va asbob-uskunalar ham kiritildi.

1925-yil dekabr oyi boshlarida Samarqand, Farg‘ona va Toshkent oblastlarida oblast yer-suv komissiyalari tashkil etildi<sup>35</sup>. Islohot o‘tkazilayotgan oblastlarning har bir uezd va volostlarida ham yer komissiyalari tuzildi. Jumladan, Samarqand oblastida 28 ta, Toshkent oblastida 13 ta, Farg‘ona oblastida 33 ta rayon yer komissiyalari tuzildi<sup>36</sup>.

Umuman, yer-suv islohotining butun zarbasi qishloqning mulkdor qatlamiga qarshi yo‘naltirilib, asosiy e‘tibor bunday xo‘jaliklarni tamoman tugatishga qaratildi. Qishloqning mulkdor qatlamiga qarshi bunday keskin yondashuv O‘zbekiston sharoitida yerdan foydalanish bo‘yicha zarur vazifalarni hal etish va qishloq iqtisodiyotini sog‘lom rivojlantirishga qaratilgan yangi iqtisodiy siyosat tamoyillariga mos kelmas va uning imkoniyatlarini cheklab qo‘yar edi.

Dissertatsiyaning «1925-1927-yillarda yer-suv islohotining amalga oshirilishi va uning oqibatlari» deb nomlangan ikkinchi bobida Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Zarafshon oblastlarida o‘tkazilgan islohot xususiyati, islohot jarayonlariga mulkdorlarning munosabati va islohotning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil etilgan.

O‘zbekistonda yer-suv islohotini o‘tkazishning birinchi bosqichi 1925-1926-yillarni o‘z ichiga oladi. Ayni bosqichda islohot Samarqand, Toshkent va Farg‘ona oblastlarida amalga oshirildi. Bu bosqichdagi amaliy ishlarga 1925-yil dekabr oyi o‘rtalaridan kirishildi. 1925-yil 12 dekabrda Farg‘ona oblast ijroiya komiteti yer-suv islohoti bo‘yicha amaliy ishlarni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. 13-dekabrda bu bo‘yicha operativ ishlar Samarqand va Toshkent oblastlarida ham boshlandi<sup>37</sup>.

Farg‘ona oblast ijroiya komitetining 1925-yil 17-dekabrda yig‘ilishida oblastdagi 40 desyatnadan ortiq yerga ega bo‘lgan «pomeshchik va quloq» xo‘jaliklari deyarli tugatib bo‘lingani aytili<sup>38</sup>. Dastlabki rejada Farg‘ona oblasti bo‘yicha 155 ta «pomeshchik xo‘jaligi»ni tugatish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, 1926-yilning 15 yanvarida tugatilgan bunday xo‘jaliklar soni 575 taga yetgan<sup>39</sup>. Bu hol islohot mahalliy rahbarlar tomonidan shoshma-shosharlik bilan, «rejani ortig‘i bilan bajarish» usulida o‘tkazilganini ko‘rsatdi. Keyinchalik ma‘lum bo‘lishicha, tugatilgan xo‘jaliklarning aksariyatini o‘rtahol dehqonlar tashkil qilgan.

Islohot davomida yer egalari va mol-mulklarini haqli ravishda yashirib qolish holatlari ham yuz berdi. Bu kabi yer va mol-mulklarni komissiyadan yashirib qolgan yoki miqdorini kamaytirib aytgan xo‘jaliklar sud javobgarligiga tortildi. Farg‘ona oblast partiya komiteti 1926-yil 2 yanvarda bu kabi xo‘jaliklar ustidan ochiq sud o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 1926-yilning 19 yanvarida Andijon uezdi Haqqulobod qishlog‘ilik katta yer egasi

<sup>35</sup> Andijon VDA, 708-fond. Shaxsiy fond Professor Alimov Ibragim Gapparovich. 1-ro‘uxat, 17-ish, 3-4-varaqlar

<sup>36</sup> Икрамов А. Итоги земельно-водной реформы и перспективы её закрепления. – Самарканд–Ташкент, 1926. – С. 22.

<sup>37</sup> O‘z MA, P-86-fond, 1-ro‘uxat, 3093-ish, 139-varaq.

<sup>38</sup> Farg‘ona viloyat davlat arxivi (keyingi o‘rinlarda - Farg‘ona VDA), 127-fond, 1-ro‘uxat, 461-ish, 187-varaq.

<sup>39</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 333.

Sotvoldi Abdurahmonov ustidan ochiq sud o'tkazilib, u yeri, ish hayvonlari va qishloq xo'jalik asbob-uskunalarini yer komissiyasidan yashirganligi uchun 7-yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan<sup>40</sup>. Bunday ochiq sudlar Qo'qon, Marg'ilon, Namangan uездlarida ham o'tkazilib, bir qator badavlat dehqonlar jazoga tortildi. Bu mulkdor dehqonlarni qatag'on qilishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri edi.

Islohotning yaqqol ifodalangan sinfiy yo'nalishi, uni o'tkazishda ekstremistik tajribaga asoslanish, qishloqdagi siyosiy vaziyatni jiddiy ravishda keskinlashtirdi. Hamma tomondan ta'qibga olingan badavlat dehqonlar yer komissiyalariga qarshilik ko'rsatishdi, yer va qishloq xo'jalik asboblarini yashirishdi, islohot faollariga su'iqasdlar uyushtirildi. Jumladan, Marg'ilon uездida yer-suv komissiyasi a'zosi Mamatqul hoji Abdulquliev boylar tomonidan o'ldirildi<sup>41</sup>.

1926-yilning 1 fevralida Farg'ona oblastida yer-suv islohotini o'tkazish ishlari yakunlandi. Islohot ishlari 13 fevralda Toshkent oblastida, 14 fevralda Samarqand oblastida ham yakuniga yetdi. Bu oblastlarda o'tkazilgan islohot natijasida 15198 xo'jalikdan yer va mulk to'la musodara qilindi. Ular orasida 594 ta «pomeshchik» xo'jaligi, 1001 ta yirik savdogar xo'jaliklari va 13603 ta «mehnatsiz xo'jaliklar», ya'ni, yeriga o'zi ishlov bermay, chorikor va batraklar mehnatidan foydalanayotgan xo'jaliklar bor edi<sup>42</sup>. 594 «pomeshchik» xo'jaligining 365 tasi Farg'ona oblastida, 157 tasi Toshkent oblastida, 72 tasi Samarqand oblastida tugatildi. Bu xo'jaliklarning o'zidan 43347,45 desyatina yer musodara qilingan. Jumladan, Farg'ona oblastida 24645,22 desyatina, Toshkent oblastida 12980,5 desyatina, Samarqand oblastida 5720,73 desyatina «pomeshchik» yerlari taqsimlash fondiga olingan. Bu xo'jaliklardan yer bilan birga ish hayvonlari va qishloq xo'jalik asboblari ham musodara qilib olindi. Savdogar xo'jaliklardan esa 4593,57 desyatina yer va chorikorlarga ijaraga berilgan barcha qishloq xo'jalik asboblari tortib olindi<sup>43</sup>.

Ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, yer-suv islohoti Farg'ona oblastida juda keskin tarzda o'tkazilgan. Bu yerda tugatilgan, faoliyati cheklangan va jazolangan xo'jaliklar foizi boshqa oblastlarga taqqoslaganda ancha yuqori bo'lgan. Buning asosiy sababi, aksariyat hollarda yeri musodara normasiga yetmasa-da, ozgina yerdan ham yuqori hosil olib katta daromad topayotgan o'rtahol dehqonlar ham jazoga nohaq tortilgan.

Islohot jarayonidayoq, yer olgan kambag'al dehqonlarning bir qismi yerga birgalikda ishlov berish shirkatlariga (TOZ) va artellarga birlashtirildi. Umuman, islohot davrida 364 ta qishloq xo'jalik artellari tashkil etilgan bo'lib, artellarning 299 tasi Farg'ona, 3 tasi Toshkent, 62 tasi Samarqand oblastlarida edi<sup>44</sup>.

Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi 1927-yilda Zarafshon oblastida amalga oshirildi. Bu oblastda mulkdor xo'jaliklarning tugatilishi, yer va mol-mulklarining

<sup>40</sup> Farg'ona VDA, 127-fond, 1-ro'yxat, 112-ish, 77-varaq.

<sup>41</sup> Farg'ona VDA, 127-fond, 1-ro'yxat, 112-ish, 45-varaq.

<sup>42</sup> Отчет по проведению земельно-водной реформы в областях Самаркандской, Ферганской и Ташкентской УзССР. – Самарканд: Изд. Наркомзем УзССР, 1928. – С. 32.

<sup>43</sup> Кўрсатилган асар. – С. 40-41.

<sup>44</sup> Отчет по проведению земельно-водной реформы в областях Самаркандской, Ферганской и Ташкентской УзССР. – Самарканд: Изд. Наркомзем УзССР, 1928. – С. 61.

musodara qilinish jarayoni ularning keskin qarshiligi ostida kechdi. OGPU Buxoro okrug bo'limining informatsion hisobotlarida Zarafshon oblastidagi boylarning islohotga qarshilik harakatlari batafsil yoritib o'tilgan<sup>45</sup>.

